

## XIVA XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Rahmatov Murodjon A'zam o'g'li

**BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-tar -22 guruh talabasi**

Yusupjonova Marjonaxon Asrorjon qizi

**BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-tar -22 guruh talabasi**

Maxamadov Abduhoshim Mo'minjon o'g'li

**BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-TAR-21 guruh talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10117862>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xiva xonligida davlat boshqaruvida olib borilgan islohotlar, davlat boshqaruvi tuzilishi, davlat mansablari va unvonlar hamda ularing vazifalari, davlatning ma'muriy tuzilishi, harbiy mansab va unvonlar, ularning vazifalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Devon, Xiva xonligi, Buxoro, Qo'qon, qo'shbegi, yasovulboshi, Abulg'ozil Baxodirxon I, mingboshi, mehtar, devonbegi, otaliq, sharbatdor, mahram boshi, tamakisoz, loykash, kulol,

Xiva xonligi xon tomonidan boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat edi. Xonlikdagi eng oliy unvon xon bo'lib, u ma'muriy-siyosiy, xarbiy va diniy vakolatlarga ega edi. Buxoro va Qo'qon xonligidan farq qilib, Xiva xoni huzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) mavjud bo'lgan. Eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashning vakolati cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, lekin yirik saroy amaldorlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy xokimlarning davlat boshqaruviga ko'rsatadigan ta'sirini e'tirof etish zarur.

Davlat boshqaruvida xondan keyin inoq, otaliq va biy muhim ahamiyatga ega amaldorlar hisoblanar edilar. Inoqlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeining oshishi, XVII asr o'rtalarida boshlandi.

Xiva xonligida naqib, amir ul-umaro, mehtar, (saroydagi xizmatkorlar boshligi) qo'shbegi beklar begi, devonbegi, otaliq, bek, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasovulboshi, udaychi, mingboshi va boshqa bir qancha Mansablar ham mavjud bo'lgan. Xonlikdagi barcha mansablarni kushni o'zbek xonliklaridagi singari xarbiy, xarbiy-ma'muriy va diniy unvonlarga bo'lish mumkin.

Abulg'ozil Baxodirxon I Xiva taxtini egallagandan keyin o'zaro urush va janglarni bartaraf qilish uchun davlat boshqaruvi bo'yicha islohotlar o'tkazdi. Amudaryo quyi qismida yashayotgan barcha axoli to'rt guruhga (to'pga) - uygur-nayman, qo'ng'iroq-qiyot, nukus-mang'it va qang'li-qipchoqqa bo'lindi. Har to'pga alohida hudud, sug'oriladigan ariq va kanallar aniqlab berildi. Har bir to'pdan 4 ta dan, ya'ni har bir qabila ittifoqidan bitta namoyanda davlat boshqaruvi va ma'muriy ishlarga jalb qilindi. Davlat boshqaruv tizimi ham o'zgartirildi. O'zbek zodagonlaridan 360 nafar kishi turli davlat mansablari va amallariga tayinlandi. Qabila boshliqlaridan 30 nafar kishi xon noibliigi va yordamchiligiga jalb qilindi va ularga turli unvon va vazifalar berildi. Inoqlar mavqeining oshib borishi ham shu davrga to'g'ri keladi.

Yakka xokimlikka asoslangan xon hokimiyati va uning ayonlari katta ijtimoiy huquqlarga ega edi. Lekin bu mustaxkam qonunlar bilan kafolatlanmagan bo'lib, xokimiyatga, ya'ni cheklanmagan ijtimoiy huquqlarga ega bo'lishga intiluvchi kuchlar tomonidan doimiy ravishda xon hokimiyatiga katta xavf mavjud edi.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI-XVII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy birliklar - bekliliklar deb yuritila boshladi bu davrda xonlikda 16 ta beklilik va ikkita noiblik mavjud edi. Beklikni noibliklarni xon tayinlaydigan beklar va noiblar boshqargan. Xiva shaxri esa bosh vazir - inoqning shaxsan izmida bo'lgan.

Xiva xoni saroyida yana quyidagi unvon, mansab va vazifalar mavjud bo'lgan: oftobachi, buxchabardor, soatbardor, kitobdor, mo'zabardor (xon poyabzalini beruvchi), sharbatdor, mahram boshi (yuqori lavozim hisoblangan), to'shakchi, karnaychi, surnaychi, jarchi, oshmehtar (xon va saroy oshxonasi boshlig'i), sorbon (tuyachilar), kamon xalfa (ovchi, qushchi), merganlar, sayis (ot boquvchi), ko'mirchi, kuchanchi (egar-jabduqchi), tamakisoz, loykash, kulol, xodimchi, ro'molchi, selobchi (jom ushlab turuvchi), poyaki (chilimchi), aravachi, noschi, qilichkor (qilich va shamshir yasovchi), oshpaz, tovoqchi, darakchi (otchopar), jirchi (ashulachi), yo'nuvchi (duradgor), devon (mirza), mushrif (ozuqa yig'uvchi), bojbon (zakotchi) va boshq. Ularning barchasi saroy xazinasidan maosh olganliklari haqida ma'lumotlar bor. Saroydagi umumiy tartibni arbob nazorat qilgan.

Xonlikdagi harbiy unvonlar va mansablar. Davlatdagi eng oliy harbiy amaldor xonning o'zi edi. Ko'p hollarda shaxsan xon boshchiligida, ayrim hollarda taniqli sarkardalar boshchiligida boshqa hududarga yurishlar uyushtirilgan. Eng yuqori harbiy-ma'muriy lavozim amir ul-umaro edi. Undan keyingi rasmiy ravishda yuqori sarkarda yasovulboshilik mansabi edi. Xonlikda ular ikki kishi bo'lib, biri yovmud turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdirlarga qo'mondonlik qilardi. Xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi. Lekin ular xon huzurida bo'ladigan tor kengashda mehtar, qo'shbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, eshikog'alari itoat etganlar.

### References:

1. A.Karimov – “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”-2008-yil.
2. I.A.Karimov – “Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida “- 1998-yil.
3. U.Qoraboyev, G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil.
4. Azamat Ziyo –“O'zbek davlatchiligi tarixi”-2000-yil.
5. Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov –“O'zbekiston tarixi”-2014-yil.
6. U.Qoraboyev, G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil.